

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rningbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rghanish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief: Nodir Jurakuziev
Ziyoda Teshabaeva

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozenmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova

Gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning
grammatik-funksional xususiyatlari.....6

Sayalı Sadıqova

Azərbaycan dilində hərbi termin yaradıcılığı.....19

Nurislom Xursanov

Tilshunoslikda diskurs va pragmatikaga aloqador hodisalar.....30

Rəxşanə Babazadə

Eyni kökdən ayrılan mənalar (Azərbaycan və
Türkiyə Türkçələri əsasında).....46

Ehsanullah Quvanch

O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublikasi davridagi
ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni.....60

Adabiyotshunoslik

Ilhom Aslonov

Temuriy hukmdorlar obrazining "Boburnoma"da aks etishi.....73

Gulandom Yuldasheva

Mariya Sabtelni tadqiqotlarida Hirot madaniy muhiti tavsifi.....84

Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya

Adhamjon Ashirov

O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti.....97

San'at

Jamoliddin Jo'rayev

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari qo'lyozmalariga
ishlangan miniatyurlar xususida.....108

CONTENT

Linguistics

Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova

Grammatical and functional characteristics of some standard tools in newspaper language.....6

Sayalı Sadıqova

Creation of military terms in the Azerbaijani language.....19

Nurislom Khursanov

Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics.....30

Rəxşanə Babazadə

Meanings separated from the same root.....46

Ehsanullah Quvanch

The status of the Uzbek language during the Islamic Republic of Afghanistan and its place in the state system.....60

Literature

Ilhom Aslonov

Reflection of the image of the Timurid rulers in "Baburnama".....73

Gulandom Yuldasheva

A description of the cultural environment of Herat in the studies of Maria Sabtelnii.....84

Ethnology. Ethnography. Anthropology

Adhamjon Ashirov

The cult of the horse in the oral creativity of the lifestyle of the Uzbek people.....97

Art

Jamoliddin Juraev

On the miniatures worked to the manuscripts of Haydar Khorazmi's "Gulshan ul-asrar".....108

LINGVISTIKA
LINGUISTIC

Gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning grammatik-funksional xususiyatlari

Tanju Seyhan¹
Sabohat Bozorova²

Abstrakt

Mazkur maqolada gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning grammatik-funksional xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Gazeta standartlari materialni yoritish jarayonida ba'zan aynan ishlatsa, ba'zan turli leksik-grammatik vositalar bilan, ma'lum o'zgarishlarga uchragan tarzda, har xil shakllarda qo'llanadi. Bu o'zgarish ba'zan ularning har xil komponentlar hisobiga kengayishi bilan xarakterlansa, ayrim hollarda birikma tarkibidagi vositalardan birining tushib qolishi kuzatiladi. Bu o'zgarishlar natijasida so'z birikmalari tizimida funksional sinonimik qatorlarning boyishi kuchayadi. Bulardan bir qismida yangi semantik va shakliy qayta qurilishlar yuz beradi. Shu tariqa so'z birikmalari boyib boradi. Bu esa, o'z navbatida, sintaktik sinonimika taraqqiyotiga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Til qonuniyatları, sintaktik me'yorlar doirasida bo'ladigan o'zgarishlar natijasida standart iboralarni aynan bir xilda qayta-qayta takrorlamaslik va boshqa maqsadlar uchun til imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanish hisobiga bir necha xil vazifadosh variantlar yaratilganini kuzatamiz.

Kalit so'zlar: *gazeta tili, standart vositalar, vazifadosh sintaktik variantlar, grammatik-funksional xususiyatlar, nolisoniy omil.*

¹ Tanju Oral Seyhan – filologiya fanlari doktori, Me'mor Sinon nomidagi Nafis san'atlar universiteti professori.

E-pochta: tanju.seyhan@msgsu.edu.tr

ORCID ID: 0000-0002-1283-0920

²Bozorova Sabohat Ramazonovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi.

E-pochta: sabohatbozorova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2992-1789

Iqtibos uchun: Tanju O.S., Bozorova, S.R. 2023. "Gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning grammatik-funksional xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 6–18.

Kirish

Texnika taraqqiyoti va globallashuv jarayonlari tilimizdan rang-barang konstruksiyalarni talab qiladi. Adabiy tilimizda mana shu talablarga javoban, iloji boricha, aniq va ixcham ifoda etish vositalari, turli xil vazifadosh sintaktik variantlar yaratish imkoniyati bor. Shu bilan birga, tarjimaning, ayniqsa, rus va ingliz tillaridan kalkalashning ta'siri tufayli bunday vazifadosh konstruksiyalar gazeta tilida tezda yuzaga keladi. Bu omillar gazetadan gazetaga o'tib, takror qo'llanib turadigan sintaktik standartlar, sintaktik funksional sinonimiya taraqqiyotiga ham ko'maklashadi.

Standartlar dastlab nutq sohalari bo'yicha aniq taqsimlan-sa-da, keng doirada va faol qo'llanishi tufayli dastlabki uslubiy-funksional farqlanish xususiyatlarini yo'qotib, neytrallashadi. Binobarin, bu xil sintaktik-struktural o'zgarishlarning faolligini axborotlar mazmuni va mavzusining o'zi taqozo etadi. Standart vositalar va ularning variantdorligi voqelik bilan uzviy bog'liqdir. Nolisoniy va til omillari taqozosni bilan hamda tarjima jarayonida yuzaga kelgan, gazeta tilining yangi taraqqiyot bosqichi sifatida qo'llanayotgan bu xil an'anaviy va yangi elementlarning ommaga tushunarli va sodda bo'lismeni davr, jamiyat, xalq manfaati ko'zda tutilishi bilan bog'liq, deb qaramoq lozim. Bu variantlarning turli xil ma'no nozikliklari va boshqa funksional-uslubiy xususiyatlari gazeta tilini xalq ommasiga yanada ko'proq yaqinlashtiradi, uning tushunarli va sodda bo'lismeni ta'minlaydi.

"Gazeta tili, albatta, uni badiiy yoki ilmiy adabiyot tilidan, og'zaki nutqdan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatga ega. Bu gazeta asosiy ommaviy axborot vositasi sifatida bajaradigan ijtimoiy vazifaga mos keladigan tilni ifodalovchi vositalarning uzoq tanlovi natijasidir" [Axmadjonova 2022, 157]. Tezkor, ta'sirchan nutq vositalari bilan standart nutq vositalarining, shuningdek, boshqa xil nutqiy elementlarning doimiy ravishda o'zaro bog'langan holda qo'llanishi, nutqda ularning o'zaro almashinib turishi va bu vositalarning uzluksiz dialektik bog'liqlik sifatida amal qilishi, kontrast qo'llanishi gazeta publisistikasi nutqi uchun xarakterli xususiyatdir. Ammo, shu bilan birga, tildagi har qanday ifodaning, jumladan, tayyor standartlar qo'llanishining ham o'rinci yoki noo'rinciligi u yoki bu matn bilan, u yoki bu nutqiy vaziyat bilan uzviy bog'liqdir. Voqeа-hodisalarни, narsalarни obrazli-emotsional bo'yoqdorliksiz, oddiy tarzda ifoda etuvchi standart tuzilmalardan ayrimlarining gazeta nutqidagi grammatik-uslubiy funksional xususiyatlari haqida so'z yuritamiz.

Ba'zi standart vositalarning grammatik-funksional xususiyatlari

Gazeta tilining taraqqiyot bosqichlari xarakteri bilan uzviy bog'liq holda yuzaga kelgan standart tuzilmalarning ko'pchiligi gazetadan gazetaga ko'chib yuruvchi, bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa, bir sohadan boshqa sohaga o'tib yuruvchi tayyor nutq vositalaridir. Bularning bir qismi rus tilidan tarjima qilish orqali o'zlashib ketgan gazetaviy birikma va tuzilma(konstruksiya)lardir. Bulardan bir qismining qay darajada qat'iy qoliplashib, turg'unlashib qolganligi haqida aniq fikr aytish qiyin. Chunki bunday tuzilmalarning ma'lum qismi vaqtinchalik bo'lib, faqat ma'lum bosqichdagi nutqiy jarayonlarga, nutqiy vaziyatlarga, kontekstlarga moslashgandir.

"Gazetani haqiqat ko'zgusiga tenglashtirishadi. U hayotda sodir bo'lgan voqeа-hodisalar haqida nafaqat xabar beradi, balki shu orqali o'quvchilar ongiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, gazeta uchun nimani yoritish bilan birga, qanday yoritish masalasi ham juda muhim. Davriy nashrlar keng auditoriyaga mo'ljallangan ekan, ularning tili tushunarli, adabiy me'yorlar nuqtayi nazaridan to'g'ri va aniqlikka assoslangan bo'lishi kerak. Bu nafaqat gazeta ilmining, balki o'quvchining ham talabidir" [Qayumova 2016, 8].

Ko'p qismli kengaygan tuzilmalar o'zbek tilida azaldan bor bo'lgan va davom etib kelayotgan an'anaviy andozalar negizida yuzaga kelgan. Qadimdan tilda mavjud bo'lgan modellar asosida so'z birikmalari va tuzilmalarda turli o'zgarishlar ro'y bergen. Bunday o'zgarish va kengayishlarni, qayta qurilishlarni qanday omillar yuzaga keltirgan, degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga, eng avvalo, nolisoniy omillar sabab bo'lgan. Binobarin, gazetada bayon qilinayotgan voqeanning o'zi mana shunday nutq vositalarining qo'llanishini taqozo etadi. Demak, ushbu nutq vositalari – birikma va atamalarning obyekti dastlab jamiyat hayotida ro'y beradi. Shuningdek, bu xil o'zgarishlar til talablari va tildan tashqari bo'lgan ma'lum omillar bilan aloqador ravishda vujudga keladi: narsavoqealarni, faktlarni, iloji boricha, aniq izohlash, ularga batatsil axborot berish uchun (tildagi izohlash, konkretlashtirish tamoyili asosida) bir necha so'zlar birin-ketin ma'lum leksik-grammatik, semantik-struktural va intonatsion vositalar yordamida o'zaro birikadi: ular grammatik qonuniyatlar asosida o'zaro birikib, bir-biri bilan mazmun va shakl jihatdan bog'lanadi, ba'zan bir necha xil variantlarda shakllangan holda o'z vazifasini bajaradi. Bu xil qurilmalarning tarkibini, taxminan, quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Ikki so'zli birikmalar: xususiy korxonalar, shahar korxonalari, mutasaddi tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, tabiatni asrash, dolzarb vazifalar, tinchlik yo'li, tinch istiqbol va boshqalar.

2. Uch so'zli birikmalar: hammaning taqdirini o'ylash, yalpi xavfsizlikni ta'minlash, tinchliksevar ichki siyosat, tinchliksevar tashqi siyosat va boshqalar.

3. To'rt so'zli birikmalar: Vatanimiz xalqlarining mustahkam do'stligi, tarixiy ahamiyatga molik o'zgarishlar, butun dunyodagi tinchliksevar kuchlar, terib olingan hosilning hammasi, mustaqil respublikamizning beباho boyligi, mehnatga to'lanadigan haqning ko'payganligi, mahsulotlar xarid narxining oshganligi, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish va boshqalar.

4. Besh so'zli birikmalar: Vatanimizning erishgan juda katta yutuqlari, tinch va totuv yashamoqlari uchun, xalqning turmush darajasini oshirishga qaratilmog'i, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va boshqalar.

5. Olti va undan ortiq so'zdan tashkil topgan konstruksiyalar: mashinada terilgan bir tonna paxta uchun, qo'lida terilgan bir kilogramm yuqori sifatli paxta uchun, xalqning ijtimoiy turmush tarzini jahon miqyosidagi talablar darajasida takomillashtirish, fan-teknika va texnologiya taraqqiyotini jahon darajasigacha ko'tarish va hokazo.

Ijtimoiy omillar sababli gazeta tilida xilma-xil tuzilishdagi (sodda va murakkab) moslashuv, boshqaruv, bitishuv tipidagi va boshqa tiplardagi birikmalar, tuzilmalar keng taraqqiy eta bordi. Chunonchi, bunday birikma va tuzilmalarning shakllanishi va rivojlanishiga rus tilining ta'siri kuchli bo'ldi. Gazetalar sahifalarida tez-tez va takror-takror qo'llanib turuvchi keskinlikni yumshatish, tinch-totuv yashash, tinch-osoyishta hayot kechirishlari uchun, tinch-totuv yashashga, tinch va totuv yashamoqlari kerak, ichki imkoniyatlarni hisoblab chiqib, ichki imkoniyatlarni hisobga olgan holda, munosib kutib olish uchun, munosib kutib olishga, xalq farovonligi yo'lida, xalqning farovon turmush kechirishi uchun, xalq farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishga, xalq manfaatini ko'zlab kabi juda ko'plab birikmalarning aksariyati ba'zan aynan ishlatsa, ba'zan turli leksik-grammatik vositalar bilan ma'lum o'zgarishlarga uchragan holda keng qo'llanadi. Masalan: *tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan* birikmasi ba'zan turli fe'l-kesimlar bilan nutq vaziyatiga moslashadi: *tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan davom ettirmoqdamiz*, *tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan o'tkazish*,

tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan amalga oshirish uchun kabi. Ayrim hollarda birikma komponentlaridan ba'zilari tushirib qoldiriladi: *uyushqoqlik bilan o'tkazilishi lozim, uyushqoqlik bilan o'tkaziladi* kabi.

Bunday standart konstruksiyalarni shakllanish jihatdan ikki guruhga ajratish mumkin:

- a) gapga teng tuzilmalar;
- b) birikmaga teng tuzilmalar.

Standart vositalarni bu tarzda ikkiga ajratish komponentlarning soniga ko'ra emas, balki ularning gapdagi vazifasiga ko'radir. Chunki birikmaga teng ayrim iboralar 8-9 va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgani holda, gapga teng ba'zi iboralar 3-4 so'zdan tuzilishi mumkin. Ikkinchini tomonidan, bularning birikma yoki gap holidagi xususiyat va funksiyalari qat'iy emas. Ularning vazifasi turli morfologik ko'rsatkichlar yordamida almashinib turadi. Demak, bunday holatlarda sintaktik vazifaning belgilanishida turli morfologik ko'rsatkichlar katta rol o'ynaydi: *Barakali xirmon ko'tardilar*. Bu qurilma hozirgi ko'rinishda gap shaklida. Misoldagi yaqin o'tgan zamon fe'l hozirgi va kelasi zamonalarda ishlatilishi mumkin. Yaqin o'tgan zamon fe'l (*ko'tardilar*) uchinchi shaxs ko'plik shaklida bo'lib, shu qurilmaning gap bo'lib shakllanishini ta'minlab turibdi. O'rni bilan ana shu fe'l harakat nomi shaklida kelib, ko'pincha, ko'makchi va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanganda yuqorida tuzilma gap vazifasini emas, balki so'z birikmasi vazifasini bajaradi: *barakali xirmon ko'tarish uchun, barakali xirmon ko'tarish bilan, barakali xirmon ko'tarishga* va h.k. Ko'rini turibdiki, bunday standart qurilmalarning gapdagi vazifasi ikki xil: ularning gapga xos xususiyatini yuzaga chiqarishda, gap bo'lib kelishini ta'minlashda fe'lning shaxs va zamon qo'shimchalari yetakchi rol o'ynaydi. Shu qo'shimchalar qo'llanmasa, qurilmalar, ko'pincha, boshqa qo'shimchalar va ko'makchilar yordamida so'z birikmasi bo'lib keladi.

Dastlab gapga teng qurilmalar haqida to'xtalaylik: *yuksak tashabbuskorlik bilan amalga oshirishga kirishildi, tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan o'tkazildi, munosib hissa qo'shdilar, foydalanishga topshirilmoqda, zarur chora-tadbirlar ko'rilishi lozim, barcha agro-texnik tadbirlarga to'g'ri amal qilinadi, ko'pgina tadbirlar amalga oshirilishi kerak va boshqalar*. Keltirilgan qurilmalar uch zamondagi harakat va holatni ifodalamoqda. Tuzilmalarning gap bo'lib kelishini ta'minlagan shaxs-son va zamonga xos fe'l ko'rsatkichlari gaplarning shu vazifalarini yuzaga chiqarishda katta rol o'ynaydi. Ana shu

morfologik ko'rsatkichlar sintaktik vazifani to'la bajara olgan.

Gazeta tilida ishlataladigan, so'z birikmasiga xos xususiyat va vazifani bajaradigan standart tuzilmalar ko'rinish jihatdan xilma-xildir. Respublikamizdagi bir qator gazetalarning sahifalarini kuzatish so'z birikmasiga teng keladigan standart tuzilmalarning quyidagi ko'rinishlari faol qo'llanganligini ko'rsatdi:

-sh, -ish qo'shimchalari bilan shakllangan turli ko'makchilar va ko'makchi o'rnida qo'llangan so'zlar yordamida ishlataluvchi tuzilmalar, ot so'z turkumlari tarzida qo'llanuvchi standart qurilmalar, ravishdosh va sifatdosh oborotlari shaklida qo'llanuvchi standart tuzilmalar.

-sh, -ish qo'shimchalari yordamida shakllangan standart tuzilmalar, boshqa standart tuzilmalar kabi tasvir etilayotgan voqeani ixcham ifodalash imkonini beradi: *tashkiliy jihatdan uyushqoqlik bilan o'tkazish, mahsulotning sifatini yaxshilash, tannarxni arzonlashtirish, ishlab chiqarish, mehnat qilish, ishlov berish, mehnat unumdarligini oshirish, mehnatni ilmiy tashkil etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, yalpi mahsulot ishlab chiqarish, mehnatda, ulkan yutuqlar bilan kutib olish* va boshqalar.

Standart tuzilmalar deyarli o'zgarmaydigan doimiy tuzilish va komponentlarga egadir. Nutq vaziyati va tasvir taqozosi bilan ba'zan konstruksiyadan oldin yoki keyin turli so'zlar qo'shilib keladi: *dalalardagi barcha ekinlarni to'kmay-sochmay yig'ishtirib olish* birikmasining asosiy komponenti *to'kmay-sochmay* iborasidir. Ushbu ibora xalq iborasi darajasiga ko'tarilgan. Hozirgi gazeta tilida shu ibora atrofida har xil so'zlarning funksional-uslubiy holatlarda ifodalanishi natijasida turli variant birikmalar yuzaga kelganini ko'ramiz: *yetishtirilgan hosilni to'kmay-sochmay terib olish* kabi. Lekin bunday so'zlar standart tuzilmalar tarkibida doimiy o'rnashib qolmaydi, ammo shu tasvirda standart tuzilmaning uslubiy xususiyati va sintaktik vazifasiga mazkur so'zlarning hamda grammatik ko'rsatkichlarning ta'sirini ham nazarda tutmoq lozimdir. Bu ta'sir standart tuzilma mazmunining yanada aniqlashuvida, tasvirga nihoyatda singib ketishida ko'rindi. Misollar: *Ana shu sanani munosib kutib olamiz; Xalqaro xotin-qizlar kunini yangi mehnat muvaffaqiyatlari bilan kutib olish; yangi yilni ulkan yutuqlar bilan kutib olishga, anjuman munosabati bilan o'z zimmalariga oshirilgan majburiyatlar qabul qilgan holda* va boshqalar. Ushbu tuzilmalarning dastlabki qismlarida kelgan so'z-iboralarni nutq vaziyatiga qarab boshqa so'zlar bilan bemalol almashtirish mumkin.

Standartlar tarkibida doimiy o'rnashib qolgan so'zlar ham

sinonimlari bilan yoki sintaktik-uslubiy xususiyatlari jihatidan yaqinlashadigan so'zlar, iboralar bilan almashib turishi, *munosib mehnat sovg'asi tayyorlash, katta tuhfa tayyorlash* tarzida ifodalanishi ham mumkin. *Texnikadan samarali foydalanish tuzilmasidagi samarali so'zini o'rni bilan unumli, oqilona* kabi so'zlar bilan almashtirib ishlatalish ham mumkin.

Ayrim hollarda standart tuzilmalar tarkibidagi so'zlar mazmun va shaklga hech qanday zarar yetkazmagan holda, tushib qolishi ham mumkin: *mehnatni ilmiy asosda tashkil etish – mehnatni ilmiy tashkil etish* kabi.

-sh, -ish qo'shimchalari bilan yasalib, turli ko'makchilar va ko'makchi o'rnda qo'llangan so'zlar yordamida ishlatiluvchi qurilmalarning chegarasini aniqlash ba'zan ancha qiyin ko'rindi. Bu hol standart birikmalar uyushib kelganda, ayniqsa, yaqqol seziladi. Lekin tuzilmalarning asosiy qismi anglashilib turadi. Masalan: *Mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, xomashyo materiallarini tejash sohasida ham salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi* jumlasida uchta standart birikma mavjud bo'lib, hammasi *sohasida so'zi bilan bog'lanadi*. Bu aniq ko'rinish turibdi. Ayni paytda quyidagi ko'rinishli qurilmalar ham borki, garchi, ularning doimiy ko'rinishi aniq bo'lsa-da, ko'makchi so'zning qo'shilishi birikmaning chegarasi va funksiyasini aniqlash borasida diqqatni talab etadi. Masalan: *Katta anjumanni munosib mehnat sovg'alari bilan kutib olish uchun katta tayyorgarlik ko'rmoqdalar*. Bu o'rinda tuzilmaning asosiy komponenti *munosib mehnat sovg'alari bilan kutib olishdir*. Bu qurilmadagi *uchun* ko'makchisi, garchi, yordamchi element bo'lsa-da, shu tuzilmaning sintaktik vazifasini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bu jihatdan tuzilmaning shakllanishiga yordam beruvchi bunday ko'makchi so'zlar tasvirda qurilma tarkibiga kirib qoluvchi so'zlardan farq qiladi. Chunki mazkur jumladagina shu xil tuzilmalarga aloqador bo'lgan so'zlarining birikmalar mazmunining oydinlashuvida o'rni bo'lsa ham, uning vazifasini belgilashga jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. *Uchun, bilan, tufayli* kabi ko'makchi so'zlar esa standart birikmalarning sintaktik vazifasini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Ot birikmalar xarakteridagi standart tuzilmalar boshqa tipdagi standart qurilmalardan, eng avvalo, komponentlarning nisbatan kamligi, tuzilish jihatidan ixchamligi, tushunchalarni aniq aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi: *xalqaro o'rtoqlik uchrashuvi, mehnat unumdorligi, butun mamlakat aholisi, dunyo xalqlari, om-maviy axborot vositalari, barcha taraqqiyatlar* insoniyat, ijtimoiy

adolat, tinchliksevar tashqi siyosat, barcha manfaatdor tomonlar, xalqaro muammolar, xalqaro masalalar, diplomatik munosabatlar, xalqaro tinchlik anjumani va h.k. Bu xil standart birikmalar ko'rinishi va mazmuni, fikrni ifodalash xizmati jihatidan qisman ijtimoiy-siyosiy terminlarga o'xshab ketadi. Darhaqiqat, bulardan bir qatlami o'z sohasining (masalan, ijtimoiy-siyosiy sohaning) terminlari bo'la oladi. Ot birikmalar tarkibiga so'z turkumlari va otlashish jarayonlari jihatidan qaraydigan bo'lsak, ularda harakat nomlari, otlashgan vositalar hamda, asosan, ot va sifatni, sifat vazifasidagi so'zlarni uchratamiz. Ba'zan *bilan* ko'makchisi bog'lovchi o'rnida qo'llansa ham, bunday yordamchi elementlar ot xarakteridagi standart so'z birikmalari tarkibida juda kam uchraydi.

Standart birikmalarga xos xususiyatlardan biri ko'proq umumiylar xarakteridagi mazmunni ifodalashdir. Bu umumiylilik matnda reallashadi. Mana shunday holat va xususiyat ravishdosh oborotli standart birikmalarga ham xosdir. Sintaktik vazifasi jihatidan bu standart so'z birikmalari gapning turli bo'lagi vazifasida kela oladi: *Mehnat unumdoorligini oshirib, gazlamalar sifatini yana ham yaxshilash uchun astoydil kurashmoqdalar*. Bu xil standart birikmalar turli grammatik ko'rsatkichlar vositasida matnlarga singib ketib, mazmunning aniq va ixcham ifodasiga xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan misollardan ayon bo'ladiki, gazeta tilida standartlashish faol va uzlusiz jarayondir. Shuning uchun uni tayyor standart so'z va iboralarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Haqiqatan ham, ichki va tashqi omillar asosida gazeta tilida vujudga kelgan va kelayotgan so'z birikmalari nihoyatda ko'p, sansanoqsizdir. So'z birikmalari orqali ifodalanadigan narsa-hodisalar o'rtasida munosabat shunchalik cheksizki, hatto, bu so'z birikmlarini sanab chiqish mumkin emas. Gazeta tilida faol qo'llanadigan ushbu standartlarning qanchalik o'rini yoki o'rinsizligi gazetalarining o'z ichki va tashqi xususiyat-sharoitlari bilan, u yoki bu nutqiy vaziyat bilan uzviy bog'liq, ularning til va tildan tashqari omillari bilan, u yoki bu kontekst bilan bevosita aloqadordir. Bu borada shuni alohida qayd etish lozimki, ma'lum standart iborani tez-tez takrorlash standart vositani shablonga aylantirib qo'yadi. Shu sababli jurnalist, gazeta xodimi iboralarni o'z o'rnida, kerakli paytda, me'yorida qo'llashi va uni ortiqcha siyqalanishdan, qadr-sizlanishdan asrab qolishi maqsadga muvofiqdir.

Faktlarga e'tibor bilan qarash shuni ko'rsatadiki, adabiy til, ko'pincha, fikrimizni avvaldan tayyor turgan shakllarda ifodalashga

majbur etadi. Bu esa bizning fikrimizni ba'zan shablonlashtiradi. Shunisi ham borki, bu qoliplardan qutulish va fikrlarning oldinga harakat qilishi uchun tilning o'zi material beradi. Izlanib, qunt bilan ishslash yangi fikr ifodasining ijodkori bo'lishga, ijodiy tafakkurni taraqqiy ettirishga imkon beradi. Gazetaviy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan bunday tuzilmalar gazeta nutqida ma'lum funksional birliklar sifatida qo'llanadi. Bular ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida tez-tez yuzaga keluvchi va axborotlar matnida faol qo'llanuvchi vositalar hisoblanadi. Leksik-grammatik jihatdan mustahkamlanib qolgan bunday iboralar, tayyor standart vositalar imkoniyatini kengaytirish esa sabot bilan izlanishni talab qiladi. Biron fikrni ifodalashda yuqoridaq sahifalarda qayd etilgan ibora va birikmalarning ko'pchiligi o'zaro uyg'unlashib ketadi. Shu tariqa ular gazetxonga yaxlit tasavvur beradi. Nutq vositalarining bunday uyg'unligi, usluban chegarali va betaraf ibora-birikmalarning bir-biriga hamohang bo'lib, singishib ketishi gazeta tilining asosi, mohiyati va negiziga borib tutashadi.

Jamiyat taraqqiyoti natijasida tilimizda ibora va birikmalarning yangi qatlami paydo bo'la boradi. Iqtisodiyot, sanoat va qishloq xo'jaligi, adabiyot, san'at, fan-texnika rivoji, xalqimizning bemisl jasorati va shijoati birikma-iboralarning yangidan yangi turlarini yuzaga keltiradi: *paxta ekmoq, chigit ekmoq so'zlariga variant sifatida ishlatiluvchi urug' qadamoq, chigit qadamoq, baraka urug'i qadamoq* iboralari va "oq oltin" karvonlari, *cho'l karvonlari, cho'l bag'ri, "oq oltin"* diyori, "baraka daryosi", "kumush tola" ijodkorlari, "oq oltin" ijodkorlari, "oltin boshoq" ijodkorlari" kabi juda ko'p birikmalar ham gazetalarda tez-tez ishlatiladi. Bu xil ibora-birikmalarni yangi qatlam tarzida alohida ko'rsatayotganimizning boisi shundaki, ular nutqimizga yaxlit tarzda unchalik singib ketmaydi. Ularning orasidagi sintaktik aloqa ham barqaror emas, o'zgaruvchandir. Masalan: *barakali mehnat – unumli mehnat – samarali mehnat*. Boshqa ko'pgina birikmalarning komponentlarini ham shu tarzda almashtirish mumkin. Demak, bu xil ko'plab birikmalarning komponentlari yaxlitlashib, bir-biriga singib ketmagan. Shu bilan birga, bular odatdagи erkin birikmalardan farq qiladi: *astoydil mehnat qildi – ter to'kib ishladi – sidqidildan mehnat qildi* va boshqalar. Bu kabi birikmalar shu shakllarda tez-tez qo'llanadi. Demak, bularning ishlatilishida yaxlitlikka intilish bor. Bu xususiyat esa bunday birikmalarni gazetadan gazetaga ko'chib yuruvchi iboralarning o'ziga xos qatlami sifatida qarashga imkon beradi. Bir umumiy mazmunga asoslangan bu standart variantlardan bir guruhi

umumiylazmunga bog'liq bo'lgan, o'sha umumiylazmunden kelib chiqadigan turli ma'no nozikliklari, o'zgacharoq mazmuniy qirralar tufayli o'zaro farqlanib, ma'lum vaziyatdagi voqelikni aynan aks ettirishga xizmat qiladi. Standart vositalar ham fikr ifodalashning o'ziga xos bir turidir. Bularni tanlab, saralab o'z o'rnida ishlatish, fikr ifodasiga xizmat qildirish uchun astoydil, qunt bilan mehnat qilish lozim. Ular o'rini qo'llangandagina materialning aniq, ravon ifodalanishiga xizmat qiladi.

Biz yuqorida gazeta tilining bir xususiyati – gazetadan gazetaga o'tib takror-takror qo'llanib standartlashib qolgan birikma va ifodalar haqida fikr yuritdik. Gazeta tilida ikkinchi tomon ham mavjud bo'lib, bular ta'sirchanlik, tezkorlik, emotSIONallikni ta'minlovchi xususiyat ekanligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Darhaqiqat, ta'kidlanganidek, gazeta tilida *rasmiy do'stona vizit bilan, taklifiga binoan, tinchlik uchun kurash, jamoa faollari, mehnatqilmoq, amalga oshirmoq, munosib kutib olmoq, muvaffaqiyatli bajarmoq, muddatidan ilgari foydalanishga topshirmoq, ichki imkoniyatlarni hisoblab chiqib, tinchlik ishi, xayrli ish, tinchlik yo'li, yetakchi kuch, tinchlikni saqlab qolish yo'lida* kabi gazetadan gazetaga o'tib, takror qo'llanib turadigan juda ko'plab standart birikma va ifodalar bilan birga, emotSIONallik, obrazli ta'sirchanlikni yaratuvchi "oq oltin", "qora oltin", oqko'ngil, ko'ngli ochiq, "kumush tola", "qahrabo don", "dala malikasi", "qirmizi don", zarshunoslar, cho'lquvarlar, dala sohibkorlari, oltin kuz, oltin vodiy paxtakorlari, "zangori kema", ezgu niyat yo'lida, mehri daryolar, kamtarin xalq, mehnatkash xalq, oddiy dehqonlar, musaffo osmon, xushmanzara bog'lar, qo'lni qo'lga berib, bir yoqadan bosh chi-qarib, xalqning og'irini yengil qilmoq, ravon yo'l, beminnat xizmat, quvonchbaxsh orzu-umidlar, insoniy burch kabi juda ko'plab ibora ifodalar ham mavjud. Ikki xildagi ana shunday nutqiy vositalar, ikki tomonning birlashishi gazeta tilining asosini, negizini tashkil qiladi. Binobarin, bu ikki xususiyat – standart bilan tezkorlik, ta'sirchanlikning birlashishi, o'zaro almashinib turishi, bir-birini taqozo qilishi gazeta tilining taraqqiyot dialektikasidir.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash o'rinnlidir: gazeta materiallarining aksariyatida doimiy qo'llanib turuvchi oddiy sintaktik standartlardan o'rini foydalana olish, xususan, ularning turli xil variantlarini, sintaktik sinonimlarini topa olish yozma adabiy tilimiz imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Kuzatishlar

